ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING JAHON ADABIYOTI VA SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O‘RNI XUSUSIDA



Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat o‘zbek adabiyotining faxru iftixori, balki jahon madaniy sivilizatsiyasida ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs hisoblanadi. Ko‘hna tarix oldida Bobur kabi zotlar ahamiyati benihoyat yuksakdir. Zahiriddin Muhammad Bobur bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Uning birgina “Boburnoma” asari haqli ravishda jahon adabiyotining eng yirik durdonalaridan biri sifatida har tomonlama tahlil va tadqiqqa munosibdir.

Kalit so’zlar: Boburnoma, sulola, masxab, o‘zbek, daho.

Annotation

Zahiriddin Muhammad Babur is not only the pride of Uzbek literature, but also a great person who left an indelible mark on world cultural civilization. In the face of ancient history, the importance of people like Babur is extremely high. The priceless creative and scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur holds a special place not only for the Uzbek people, but also in the history of world literature, in the development of our national culture and literary and aesthetic thinking. His only work "Boburnoma" rightfully deserves comprehensive analysis and research as one of the greatest masterpieces of world literature.

Key words: Baburnoma, dynasty, mashab, Uzbek, genius.

Zahiriddin Muhammad Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Shoh va shoir, buyuk davlat arbobi, benazir ijodkor Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat o‘zbek adabiyotining faxru iftixori, balki jahon madaniy

sivilizatsiyasida ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs hisoblanadi. Ko‘hna tarix oldida Bobur kabi zotlar ahamiyati benihoya yuksakdir. Alisher Navoiydek dahodan so‘ng o‘zbek adabiyotida iste’dod borasida ko‘p va xo‘b shuhrat qozongan Bobur milodiy 1483-yilda Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug‘ilgan. Amerikalik bobur shunos olim S.M.Berk ta’kidlaganidek “Bobur shohning tomirlarida markaziy osiyolik mashhur sarkardalardan ikkitasining qoni jo‘sh urib turardi. Ota tomonidan u Amir Temurning beshinchi avlodiga mansub bo‘lsa, onasining ajdodlari tomonidan o‘n ikkinchi bo‘g‘in sifatida Chingizxonga borib taqalardi”. Jahon va o‘zbek bobur shunosligi sahifalari nihoyatda keng va rang barangdir. Bobur haqidagi eng qimmatli va aniq manba avvalo uning o‘z qalamiga mansub memuar asari “Boburnoma”da keladi.

Dunyo ilm ahli bu asarni shunday nomlasa-da, Bobur Mirzoning o‘zi uni estaliklar va xotiralardan tashkil topgan ushbu asarini “Vaqoyi’noma” nomi bilan atagan. Javoharla’l Neru shunday deydi: “Bobur esdaliklar yaratdi va mazkur ajabtovur kitob bu insonning qalb olamiga nazar solish imkonini beradi”. Ushbu asarda 1494-1529-yillar oralig‘ida Movraunnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar tasvirlanadi. Bobur Mirzoning ushbu asari noyob tarixiy voqealar qayd etilgan, davlat boshqaruvi, shohlikning aziymati, Temuriylar salatanatining parokanda bo‘lishi, tarix sahnasiga o‘zbek xonlarining kelishi, Movraunnahr, Kobul, Hindiston kabi o‘lkalar tarixi, geografiyasi, o‘simliklar dunyosi, xalqi, etnografiyasi haqida mufassal ma’lumot beruvchi nodir qimmatli manbadir.

“Nafis she’rlari bilan nom qozongan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining shoh asari – “Boburnoma”da tabiat, o‘simliklar va hayvonot olami, yilning fasllari haqida to‘liq ma’lumot beradi.Mazkur buyuk asari tufayli ul mo‘tabar zotni ulug‘ tabiatshunos olimlar qatoriga qo‘shish mumkin. Boshqa olimlardan farqli o‘laroq Bobur “Boburnoma”da o‘zi yashagan, umr kechirgan barcha shaharlar, qishloqlarning tabiatini, o‘simliklarini, hayvonlarini, daryo-ko‘llarini, hatto yoqqan qoru yomg‘irlarini ham to‘liq tasvirlab beradi”, “Boburnoma”ning o‘rganilish tarixiga boshqa o‘rinlarda to‘xtalib o‘tamiz. Bobur haqida yozilgan yana bir tarixiy manba Zahiriddin Muhammad Boburning zamondoshi, xolavachchasi, uning homiyligida tarbiyalangan muarrix Mirzo Muhammad Haydar Dug‘latning “Tarixi Rashidiy” asaridir. Ingliz adibasi Flora Anna Stil ham “Jahongashta hukmdor” asari kirish qismida mo‘g‘ul atamasi xato ekanini ta’kidlaydi. Ushbu asar haqida keyingi fasllarimizda batafsil to‘xtalib o‘tiladi. Dunyo sivilizatsiyasida eng shijoatli va ma’rifatli hukmdor sifatida tan olingan Boburning hayot yo‘lida aslzodalarga xos ana o‘sha ta’lim-tarbiya, jo‘shqin iste’dod alohida o‘rin egallaydi.

Hindiston davlat va jamoat arbobi Javoharla’l Neru “Hindistonning kashf etilishi” asarida Bobur shoh haqida “Bobur shox bekiyos darajada madaniy, dilbar shaxslardan biri edi. U mazxabparastlikka xos maxdudlik va diniy mutaassiblikdan yirok edi...Bobur shox san’at va adabiyotga kizikar, o‘zi turkiy va fors tilida she’rlar bitar edi”deydi. J.Neru Boburni bosqinchi hukmdor sifatida emas, Hindiston madaniyati va sivilizatsiyasida ulkan o‘rin tutgan sulolaning asoschisi, Sharq uyg‘onish davrining tipik vakili sifatida ko‘radi. Ulug‘bekning mashhur ulamolaridan biri Mavlono Munir Marg‘inoniy uning tavalludi ta’rixini «shashi muharram» (muharramning oltisi) deb topdi. Hazrati Eshon Xoja Ubaydulloh quddisa sirrahudan chaqaloqqa nom qo‘yib berishni so‘rashdi. U go‘dakni Zahiriddin Muhammad ismi bilan baxtiyor etdi”. Bobur Mirzo ismini uning piri, Xoja Ahror Valiy avlodi bo‘lmish Xoja Ubaydulloh qo‘yib bergani kabi tarixiy faktlar “Tarixi Rashidiy”da ko‘plab uchraydi. Shayboniyxon ta’qibidan qochib, xolavachchasi Bobur Mirzo qanotidan panoh topgan Muhammad Haydar Mirzo iqtidorli harbiy sarkarda sifatida ham Boburga xizmat qilgan. Hindistonlik bobur shunos V.mahajan Qanaujdagi urush tafsilotlari haqida hech kim Mirzo Haydarchalik batafsil ma’lumot berolmaydi, negaki uning o‘zi bu urushda shaxsan ishtirok etib, voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani aytiladi.

Shu o‘rinda bir faktni ta’kidlab o‘tish lozim. Dunyo ilm ahli Boburni mo‘g‘ul, u asos solgan Boburiylar saltanatini esa Mo‘g‘ulllar imperiyasi nomi bilan ataydilar. Adabiyotshunos S.Hasanovning yozishicha, bu atamaga birinchilardan bo‘lib akademik H.Sulaymon aniqlik kiritib, Temuriylar sulolasidan bo‘lgan Boburning mo‘g‘ullarga nisbat berilishi yanglish ekanini aytadi. Olimning yozishicha, XVII asrda Hindistonga kelib o‘rnashgan portugaliyaliklar “mo‘g‘ul” nomini Yevropaga yoyishadi. Yillar o‘tishi bilan bu ommalashib, Boburiylar saltanati

“Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasi” nomi bilan atala boshladi. Asl tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga ko‘plab o‘zbek olimlari munosib xissa qo‘shdilar.

Bobur shunos olim Hasan Qudratullayev “Bobur shaxsiyati va nasl-nasabini mo‘g‘ullar qavmiga nisbat berish ham ma’naviy, ham siyosiy jihatdan asossizdir. U butun umr davomida Amir Temur salatanatini tiklash uchun kurashdi. Temuriyzodda sifatida shu qavm shuhratini himoya etib, o‘ziga munosib sharafli haykal qo‘ydi, qisqa ammo barakali umrini Vatan manfaatlariga bag‘ishlab o‘tdi”, deydi. Ingliz adibasi Flora Anna Stil ham “Jahongashta hukmdor” asari kirish qismida mo‘g‘ul atamasi xato ekanini ta’kidlaydi. Ushbu asar haqida keyingi fasllarimizda batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Qolaversa mamlakatimizda so‘nggi yillarda Boburiylar tarixi va madaniyatini o‘rganish, dunyoga targ‘ib qilish ishlarini amalga oshirayotgan Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi Zokirjon Mashrabov ma’lumotiga ko‘ra 2017 yilda Andijonda o‘tkazilgan «Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni» mavzusidagi xalqaro konferensiyada jahon bobur shunoslari tavsiyasiga ko‘ra bugungacha jahon ilmiy - adabiy jarayonida Bobur va Boburiylarga nisbatan xato qo‘llanib kelinayotgan “Buyuk mo‘g‘ul” atamasini qo‘llamaslik hamda Bobur ijod qilgan tilga nisbatan yanglish “chig‘atoy tili” atamasi o‘rniga “turkiy til” (mumtoz tili)atamasini ilmiy iste’molga kiritish yuzasidan konferensiya qarori qabul qilingan. Albatta, bu voqeani ham bobur shunoslikning ulkan yutuqlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tish lozim. “Karim ut-tarafayn”(ikki tomonlama ulug‘) Zahiriddin Muhammad Bobur Temuriylar xonadoni shahzodalariga xos yuksak darajada ta’lim va tarbiya oldi. Bu kabi ma’lumotlar yana bir tarixiy manba Nuriddin Jahongir qalamiga mansub “Jahongirnoma” asarida ko‘plab uchraydi. Jahongir podshoh Boburiylar sulosasining to‘rtinchi podshosi va Boburning evarasi bo‘lgan. Asli ismi Salim bo‘lgan bu shahzoda Akbarshohning vorisi bo‘lib, Jahongir nomi bilan taxtga chiqadi. Bobur Mirzo “Boburnoma” asarini yozgani kabi u ham bobosiga taqlidan “Jahongirnoma” asarini bitadi. Usluban “Boburnoma”ga o‘xshash bu asarda ham Bobur va uning saltanati haqida qimmatli tarixiy ma’lumotlar bor.

Dunyo sivilizatsiyasida eng shijoatli va ma’rifatli hukmdor sifatida tan olingan Boburning hayot yo‘lida aslzodalarga xos ana o‘sha ta’lim-tarbiya, jo‘shqin iste’dod alohida o‘rin egallaydi. Hindiston davlat va jamoat arbobi Javoharla’l Neru “Hindistonning kashf etilishi” asarida Bobur shoh haqida “Bobur shox bekiyos darajada madaniy, dilbar shaxslardan biri edi. U mazxabparastlikka xos maxdudlik va diniy mutaassiblikdan yirok edi...Bobur shox san’at va adabiyotga kizikar, o‘zi turkiy va fors tilida she’rlar bitar edi” deydi. J.Neru Boburni bosqinchi hukmdor sifatida emas, Hindiston madaniyati va sivilizatsiyasida ulkan o‘rin tutgan sulolaning asoschisi, Sharq uyg‘onish davrining tipik vakili sifatida ko‘radi. Boburning bolalik chog‘lari Andijonda kechgan. O‘z davrining yirik ulamolaridan fiqh ilmi-islom qonunshunosligi, harb ishi, arab va fors tillarini mukmmal o‘rganadi. Ilm-fan, san’at va adabiyotga muhabbat qo‘yadi. Tarixiy manbalarning darak berishicha, jasur va dovyurakligi uchun “Bobur” – sher kunyasi(laqabi)ni oladi. Otasi Umarshayx Mirzoning bevaqt vafoti tufayli “Tangri taoloning inoyati va koinot sarvari bo‘lgan hazrat rasuli akramning shafoati, pokko‘ngil chahoriyorlarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim” deydi. Valiahd sifatida otasining taxtiga o‘tirgan o‘n ikki yoshli shahzodaning boshida toju taxt g‘avg‘olari boshlanadi.

Temuriy shahzodalar orasida Movraunnahr taxti uchun o‘zaro kurashlar avjiga chiqqan, xiyonatkor beklar fitnasi-yu, toju taxt da’vosidagi og‘a-inilar orasidagi adovatlar avj olgan bir vaziyatda yosh Bobur Mirzoning tadbir ila davlatni boshqarishi ulkan tahsinga sazovor ishdir. O‘z taxtini mustahkamlagan Bobur bobosi Temurbek salatanatining poytaxti, “ro‘yi zamin sayqali” – Samarqandni qo‘lga kiritish va Amir Temur saltanati kabi kuchli markazlashgan davlat qurish orzusida yonadi. 1495-1496-yillardagi muvaffaqiyatsiz urinishlaridan so‘ng 1497-yilda yetti oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi. Ammo og‘ir vaziyat va tanasini zabt etgan kasallikdan so‘ng chorasiz qolgan Bobur yuz kungina idora etgan shahar-Samarqandni tark etib Andijon tomon ketishga majbur bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Temuriylar sulolasi vakillari ichida fan va madaniyatni Osiyo mintaqasida rivojlantirishga hissa qushgan eng buyuk insonlardan edi. Aynan u tufayli Temuriylar sulolasining madaniy merosi boshqa o‘lkalarga tarqadi. Misol uchun, Hindistondagi madrasalarni va o‘g‘li Humoyun maqbarasini qurishida u Xurosonning ustalarini olib kelgan. Ustalar Samarqand va Farg‘onada qurilgan binolar kabi bu yerda ham shu uslubda inshootlarni barpo etishadi. Bobur bilan kelgan minatyuristlar bir xil sifat va ko‘rinishdagi buyumlarni yaratishadi. Bobur Hindistonga yangi madaniyatni olib keldi va kuchli madaniy almashinuvlarni boshlashga turtki berdi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida
2. https://tuit.uz/post/zahiriddin-muhammad-bobur-adolatli-shoh-va-buyuk-shoir
3. https://book.uz/books/details/boburiynoma
4. https://baburid.uz/library/academics/13
5. Bobur, Boburnoma. Toshkent:1989
6. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. - T.: “Cho’lpon” nashriyoti,1995,-B.112.